

MAKTABGACHA TA'LIMDA BADIY ASARLAR ORQALI RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI SHAKLLANTIRISH

Ergasheva Soliha Bonu Boqijon qizi
FarDU magistranti

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna
FarDU dotsenti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha ta'limda badiiy asarlar orqali rivojlaniruvchi muhitni shakllantirish masalasi hamda bolalar adabiyotining rivojlaniruvchi xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: rivojlaniruvchi muhit, badiiy asarlar

Maktabgacha yoshdagi bolada muloqot ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan (1-3 yoshdan) boshlab asta-sekin ro'y beradi. Bolalar hayotining dastlabki yetti yilda atrofdagi insonlar bilan o'zaro muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlanirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega. Nutq uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallararo, ichki individual hamda umuminsoniy. Ta'kidlash joizki, ravon nutq maktabgacha ta'lim tizmida muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi dars davomida shunday vaziyatni yaratishi kerakki, unda bolalar turli xil til vositalaridan foydalangan holda dialoglarni tuzish, so'rash, javob berish, tushuntirish, iltimos qilish va h.k. zaruratiga duch kelsin. Ushbu maqsadda bolaning oiladagi, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hayoti, uning do'stlari va kattalar bilan munosabatlari, uning qiziqishlari va taassurotlari bilan bog'liq turli xil mavzularda suhbat o'tkazishdan foydalanish lozim. Chex olimi Komenskiy "aql va nutq" ni rivojlanirish uchun har ikki sohani teng ravishda olib borish zarur deb hisoblaydi. Zeroki bola nutq sababli o'z fikrini ifodalaydi va atrofdagi insonlar bilan muloqotaga kirishadi, nutqni egallash orqali atrofidagi olamni anglaydi va bolada nutq va fikrlash rivojlanadi.

Maktabgacha yoshda ona tilini o'rganish Komenskiy xulosasiga ko'ra - eng avvolo bola hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlanirish, bo'g'inlar va so'zlarni aniq talaffuz qilish, gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, narsalarning nomini to'g'ri aytib va mos fikr bildirishdan iborat Komenskiy ota-onalar farzandlari bilan muloqotda turli xil narsalar nomlarini aytishda so'zni to'g'ri buzmasdan talaffuz

qilishga va bola nutqiga qiyin va nisbatan uzun bo‘lgan so‘zlarni aytishni mashq qilish va bu jarayonda bolalar zerikib qolmasliklari uchun o‘yin tarzida olib borishlarinini maslahat beradi.

Maktabgacha yoshdan boshlab adabiyotga, kitobga muhabbat qo‘yishning o‘zida hikmat bor. Badiiy adabiyotlar kitobxonda yaxshi bilan yomonni ajratish, milliy qadriyatlarimiz - ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy meroslarga hurmat hissini uyg‘otib, yoshlarning ongini yanada yuksaltirishga yo‘l ochadi. Shunday buyuk maqsadni ado etadigan bolalar adabiyotimizning paydo bo‘lishida xalq og‘zaki ijodining ta’siri beqiyosdir. Shu bilan bir qatorda bolalar adabiyoti taraqqiyoti jamiyatning umumiyl rivoji bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bu jihatdan Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘oti turk“ asarini eslash o‘rinli. XI asrning buyuk tilshunos olimi o‘z asarlarida juda ko‘p ma’lumotlarni jamlagan. Kitobda XI asr adabiyoti bilan birga, avvalgi zamonlarda vujudga kelib, og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga ko‘chib yurgan maqollar, rivoyatlar, qo‘shiq va lirik she’rlardan hikoyalardan namunalar keltirilgan. Sharq yozma adabiyotida “pandnoma”, “nasihatnoma” kabi tasnif qilinuvchi asarlar bolalar adabiyotning ilk namunalaridir. Said Rasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza va ko‘plab ma’rifatparvarlarning “yangi usul” dagi o‘zbek maktablari o‘quvchilari uchun yaratilgan alifbo va o‘qish kitoblari o‘zbek bolalar adabiyotining tom ma’nodagi ilk yillarida namunalari hisoblanadi. 20-asrning 20-30-yillarda G‘afur G‘ulom, Shokir Sulaymon, Hamid Olimjon, Zafar Diyor, Ayniy, Kudrat Hikmat, Shukur Sadullayev, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Hakim Nazir shu kabi ijodkorlaning bolalar adabiyotida rivojlanishi hamda maxsus adabiyot sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega. Adabiy ertak janri bolalar adabiyotida keng rivojlangan. Zafar Diyorning “Toshxon bilan Moshxon”, “Yangi ertak”, Sulton Jo‘raning “Qaldirg‘och”, “Zangor gilam”, Hamid Olimjonning “Ajdar”, “Oygul bilan Baxtiyor”, Shukur Sa’dullaning “Ayyor chumchuq”, singari adabiy mazmun jihatdan badiiy asar ertaklari shakl va mazmun jihatdan badiiy asarlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yuldasheva D.M. Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Technology. Volume: 63 Issue:6 Publication Year:2020. 14221-14225
2. Yuldasheva D.M. Anthropocentric Approach To Children’s Speech Study. Section 2: Linguistics Theory, Applied Linguistics. Selection Of Materials Of The International Online Conference. www.Researsh-Support-Senter.Som 2020.92-95

3. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speesh Development Of Presshool Children. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinay Researsh(Ijmr). Impast Fastor: 7.6.11.November.
4. Юлдашева Д.М. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. cyberleninka.ru
5. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2
6. D Yuldasheva. Anthropotcentric approach to children's speech study. Конференции.
7. YD Maxamadaliyeva, M Matmusaeva. On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171
8. YD Maxamadaliyeva, MX Madaminovna. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11
9. YD Maxamadaliyeva. Use Of Presidential Names In Uzbek Children's Texts. gospodarka i innowacje. 22.
10. D Yuldasheva, S Umarova . Maktabgacha Ta'lim Tizimida O'Yinlar Texnologiyasi. Scientific progress 3 (2), 746-751
11. ДМ Юлдашева. Синтактик тақрорларнинг бадиий-эстетик имкониятлари. Международный журнал/ Искусство слова.